Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	



O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	



KICHIK BIZNES TARMOQLARIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH XUSUSIYATLARI

UDK 338.2

Abdugʻaniyev Murodjon Shavkat oʻgʻli

UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE

“Iqtisodiyot” kafedrası oʻqituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish yoʻnalishlari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini oʻzgarish jarayonlari hamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi koʻrsatib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: kichik biznes, iqtisod, xarajat, biznes, tadbirkorlik, investitsion, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiya, investitsion tizim.

Abstract: The article shows the directions of attracting investment in the small business sector, the processes of change in the activity of small business today, as well as the effectiveness of the development of small business in our country.

Key words: small business, economics, cost, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Аннотация: В статье показаны направления привлечения инвестиций в отрасли малого предпринимательства, процессы изменения активности малого предпринимательства сегодня, а также эффективность развития малого предпринимательства в нашей стране.

Ключевые слова: малый бизнес, экономика, стоимость, бизнес, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi texnologiyalarni ishga soladi, inson kapitalini shakllantirishga yordam beradi, xalqaro savdo integratsiyasiga hissa qoʻshadi, raqobatbardosh ishbilarmonlik muhitini yaratishga yordam beradi va korxona rivojlanishini, faoliyat uzluksizligini taʼminlaydi. Bularning barchasi pirovardida qashshoqlikni kamaytirishning eng kuchli vositasi boʻlgan yuqori iqtisodiy oʻsishga yordam beradi. Bundan tashqari, tinvestitsiyalar iqtisodiy imtiyozlardan tashqari, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatda ekologik va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga ham yordam berishi mumkin. Shuningdek, ekologik va ijtimoiy sharoitlar mahalliy jamoalar bilan ijobiy aloqalarning yoʻqligini, investitsiyalarning zararli ekologik taʼsirini, ayniqsa, qazib olish va ogʻir sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy uzilishlarni, tez tijoratlashtirish hamda milliy bozorlarda raqobatga taʼsirini oʻz ichiga oladi. Shuni taʼkidlash joizki, baʼzi qabul qiluvchi davlatlar xalqaro miqyosda faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarga tobora ortib borayotgan qaramlikni siyosiy suverenitetning yoʻqolishi sifatida qabul qiladilar. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakatda faoliyat yuritayotgan nafaqat kichik biznes subyektlarining balki, yirik korxonalarning hozirgi iqtisodiy rivojlanish holatida, xorijiy investitsiyalar orqali kiritiladigan texnologiyalar yoki nou-xau imkoniyatlaridan foydalana olmasligiga olib kelib, kutilgan samaradorlikka erishish imkonini bermaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlardan A.Ye.Gorodeskiy taʼbiriga koʻra: “Investitsiyalar – bu foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga uzoq muddatli kapital qoʻyilmalarni ifodalovchi iqtisodiy toifadir”, deb tavsiflagan. Bu taʼrif orqali ular, investitsiyalarni faqat tadbirkorlik faoliyati sohasiga tegishli deb cheklov qoʻyishgan ammo, investitsiya ijtimoiy sohaga, gumanitar loyihalarga ham kiritiladi, bu yerda investitsiyalar asosan davlat va mahalliy hukumatlar tomonidan amalga oshiriladi.

V.Bocharov va R.Popovanning fikricha, “investitsiyalar tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qoʻyiladigan barcha mulkiy va intellektual qiymatlarni ifodalaydi, buning natijasida foyda hosil boʻladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi”.



M. Blank “investitsiya faoliyati – bu mulk obyektlarini kapitallashtirish, investitsiya resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, investitsiya jarayonlari va investitsiya tovarlarining xalqaro harakatini tartibga solish, tegishli investitsiya muhitini yaratish, foyda olish yoki ma’lum ijtimoiy ta’sir ko’rsatish”, deb kengroq ta’rif beradi. Bu talqindan aniq ko’rinib turibdiki, investitsiya faoliyati to’g’ridan-to’g’ri investitsiya resurslaridan foydalanish bilan bog’liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiyalarning makroiqtisodiy rag’batlantirilishidan tashqari, resurslarni qabul qilish samaradorligini oshirish, tashqi savdo oqimi o’rtasidagi bog’liqlik, qabul qilinayotgan mamlakatning biznes sektori kabi yo’nalishlar orqali iqtisodiy o’sishning tarkibiy omillariga bevosita ta’sirini, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi, daromadlarning o’sishiga ham hissa qo’shishi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritilayotgan bir hil miqdordagi investitsiya turlicha samaradorlikka ega bo’lishi, turli darajadagi mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya samaradorligini baholashda ularni taqqoslash mumkin bo’lmisligi, taqqoslama tahlil o’tkazishda teng darajadagi rivojlangan mamlakatlarni tanlash lozimligi, investitsiya qarorlari jarayoni odatda ko’p yo’nalishli bo’lgan omillar va tendensiyalarni ko’p o’zgaruvchan va ko’p mezonli baholashga asoslangandir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar o’rtasida investitsion salohiyatni taqqoslash xorijiy va milliy sarmoyadorlar uchun huquqiy shartlar, kapital eksport qilish imkoniyati, milliy valyutaning holati, mamlakatdagi siyosiy vaziyat va inflyasiya darajasi xususiyatlarini o’z ichiga olgan ekspertlar ko’lamiga asoslangan bo’lishi kerak. Ko’rsatkichlar diapazoni, odatda, investorlar hisobga oladigan shartlarning to’liq spektrini aks ettirish uchun yetarli darajada aniq emas edi, biroq ba’zi ma’lumotlarni olish imkonini beradi va bu asosida sarmoya kiritish to’g’risida qaror qabul qilish mumkin bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasining madaniy merosi ham hamkorlik iqlimoqchi bo’lgan davstlabki hamkor davlatlarga nisbatan sarmoyalarga ishonch bilan qaragan bo’lsada, ayrim salbiy holatlarni vujudga kelishi bilan ularga shubha bilan qaraydigan muhitni yaratdi. Hozirgi kunda ko’pchilik hamkor davlatlarning sarmoyadagi ishtiroki, ayniqsa tabiiy resurslarni o’zlashtirish va ekspluatatsiyasi (neft, gaz qazib olish va uni qayta ishlash) ga asoslanganligini ko’rish mumkin.

Hozirgi voqelikda O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti zamonaviy texnologiyalarga juda muhtoj. Iqtisodiyotning boshqa sohalarida bo’lgani kabi sanoat sohasidagi mavjud texnologik bo’shliq uning jahon iqtisodiyoti hamjamiyatiga va umumiy sivilizatsiya jarayoniga muqarrar ravishda qo’shilishi munosabati bilan albatta, mamlakatda ma’lum darajada noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Rivojlanishning muvaffaqiyati asosan raqobatbardosh sanoat ishlab chiqarishi bilan belgilanadigan jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi, yetakchi rivojlangan iqtisodiyotlar bilan mamlakatimiz murakkab siyosiy tafovutlari fonida ro’y bermoqda. Biroq, hech bir mamlakat o’z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish muammosini alohida hal qila olmaydi. Ilg’or texnologiyalarni jalb qilmasdan, o’zimizning zamonaviy texnologik bazamizni yaratish imkonsiz vazifadir.

Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotida va xususan, EIZda kichik biznesni iqtisodiyotning asosi deb hisoblash mumkin. Kichik biznesga bo’lgan munosabat, uni qo’llab-quvvatlash, mamlakat aholi bandligini, ta’minlash va daromadini oshirish bilan birga iqtisodiyotini rivojlantiruvchisi sifatida tavsiflash mumkin. Iqtisodchilar orasida, ijobiy baholar bilan bir qatorda, kichik biznesning roliga shubha ostida baho beruvchilar ham uchraydi. Shuni ham tan olish kerakki, umuman, EIZning yaratilishi ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirishga hali yetarli darajada yordam bermadi.


Shunga qaramay, xalqaro amaliyot, aniqrog’i, rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko’rsatadiki, mamlakat hududida erkin iqtisodiy zonalar yaratish iqtisodiy rivojlanish strategiyasi yuqori asosli va sababli natijalarni talqin qilmoqda. Xususan:

- *birinchidan*, EIZ dasturi xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi va natijada, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan xorijiy investitsiyalarning o’sish sur’ati oshadi;
- *ikkinchidan*, dastur EIZga boy konsentratsiyali iqtisodiyotni yaratadi va texnik taraqqiyotni oshiradi;
- *uchinchidan*, aholining bandligi ta’minlanadi, daromadi va turmush farovonligi oshadi.

Nihoyat, bir nechta EIZ va kichik iqtisodiy zona(IKZ)ga ega bo’lgan hudud, bitta EIZ hamda IKZga ega bo’lgan hududga qaraganda, aglomeratsiya iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning o’sishi va ishlab chiqarish omillari narxlarining o’zgarishi uchun yanada jozibadorligini namoyish etmoqda.

Bizningcha, hududlarning investitsion muhiti muammolari va ularning mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'sirini o'rganayotganda, asosiy kapitalni yangilash loyihalariga sarmoya kiritish jarayonini loyihalarning davomiyligi, murakkabligi, qaytarilish xavfining yuqori bo'lishi, o'ziga xosligini alohida ko'rib chiqish zarur. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning real sektoriga sarmoya kiritish xavf va xatarlarini aniqlash, tizimlashtirish hamda ularning salbiy ta'sirini kamaytirish, investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, mamlakatning investitsion muhitiga bir qator omillar ta'sir qiladi jumladan, sanoatning rivojlanishi birinchi navbatda fuqarolik maqsadlari uchun sanoatning yetakchi tarmoqlari, sanoat korxonalari-ning asosiy kapitalining eskirish darajasi, yuqori texnologiyalarni yaratish sohasidagi ishlar – ixtisoslashtirilgan tadqiqot markazlari, sinov laboratoriyalari va boshqalar mavjudligi, texnik jihozlanish darajasi, mashinasozlik sanoati hamda geografik joylashuvi, ekologiya-ning holati hududiy joylashuvi, atrof-muhit holati va boshqalar. Shunga ko'ra, investitsiya muhiti asosan iqtisodiyot, huquq, davlatning tashqi aloqalari va boshqalar sohasidagi davlat siyosatining natijasi bo'lgan omillar va sharoitlar bilan belgilanadi, ya'ni bu aniq davlat tuzilmalari faoliyatiga bog'liq. Bularga qo'shimcha ravishda mamlakat investitsion muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida bizningcha quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Mamlakat investitsion muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Bundan ko'rish mumkinki, butun iyerarxik iqtisodiy tizimning asosiy elementi – korxona – alohida yoki bir xil kompaniyalar guruhida (xolding, texnopark va boshqalar) ishlaydigan va ma'lum bir sohaga tegishli bo'lgan, geografik jihatdan alohida hududda joylashgan hamda mamlakat iqtisodiyotining bir qismi hisoblanadi. Shunday qilib, investitsiyalar oqimini rag'batlantiruvchi yoki to'sqinlik qiladigan davlatning investitsiya muhitining holatini aniqlaydigan omillarning butun majmuasi ularning korxonaga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi kerak.

Bunda iqtisodiy tizim:

- makro darajada – mamlakat iqtisodiyoti;
- mezo darajada – mintaqaviy iqtisodiyot;
- mikro darajada – ma'lum bir xo'jalik subyekti iqtisodiyoti.

Shunday qilib, investitsiya muhitining yuqoridagi komponentlarini tegishli darajalariga qarab guruhlash mumkin.

1. Davlat darajasida sarmoyaviy muhitni 3 guruh siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari shakllantiradi.
2. Mintaqaviy investitsiya iqlimi – bu mintaq yoki mintaq milliy iqtisodiyotining bir qismi darajasidagi investitsiya faoliyati uchun huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geografik sharoitlar tizimi. Mezo darajadagi sarmoyaviy muhit asosan mintaqaning sanoat salohiyati, uning iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari, hududiy joylashuvi (tabiiy resurslarning mavjudligi, poytaxtdan uzoqligi va boshqalar), shuningdek, mintaqaviy qonunchilik va rivojlanishning ustuvorligi, davlat dasturlarni amalga oshirish.
3. Mikro darajada, investitsiya muhiti investor va xo'jalik yurituvchi subyekt – investitsiya faoliyati ishtirokchilarining to'g'ridan-to'g'ri kontragentlari: banklar, uskunalar yetkazib beruvchilar, kasaba uyushmalari ishtirokida shakllanadigan munosabatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi.



Sanab o'tilgan sohalarining har birini bosqichma-bosqich amalga oshirish milliy iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishi, biznesni uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirishi, mamlakat ichidagi investitsiya faolligini kuchaytirishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini jozibali va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishga sezgir bo'lgan xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish uchun harakat qilishi kerak.

Asosiy vositalarni yangilash jarayoni boshqa investitsiya loyihalaridan farqli o'laroq bir qator o'ziga xos xususiyatlarga xususan, amalga oshirish muddati, amalga oshirishning murakkabligi, tashqi malakali mutaxassislarni jalb qilish zarurati, joriy ishlab chiqarish faoliyati bilan birlashish zarurati va yuqori qaytarilish xavfi ega. Bundan tashqari, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ishlab chiqarish bazasini yangilashga sarmoya kiritish jarayoni investor, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektning egasi predmetlari tarkibi bilan farq qiladi.

Bundan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyekt egasi oldida murakkab va keng ko'lamli vazifalar turibdi: o'z mablag'larini ko'paytirishni ta'minlagan holda, qarz mablag'larini samarali tasarruf etish zarur. Asosiy kapitalni yangilash uchun mablag'larning samarali sarmoyasi mashinalar va uskunalar parkini yangilash loyihagini malakali ishlab chiqishni, ishonchli yetkazib beruvchilarni qidirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik rejalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Investor nuqtai nazaridan, investitsiyalar, agar iloji bo'lsa, qisqa vaqt ichida va eng past tavakkalchilik bilan, investitsiya qilingan kapitalni ko'paytirishning asosiy maqsadiga ega. Investorlar mahalliy tuzilmalar (davlat, banklar, tijorat tashkilotlari, jamg'armalar, jismoniy shaxslar va boshqalar) va xorijiy sheriklar (banklar, korxonalar va boshqalar) bo'lishi mumkin. Investitsion soha islohotida xususiyashtirilgan korxonalarning sarmoyaviy faoliyatiga ham muhim o'rin ajratiladi.

Korxonalar mulkini va aksiyalarini sotish hisobiga kapital mablag'larni moliyaviy ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi, deb hisoblanadi. Ammo kichik biznes subyektlarida bunday aksiyalarni mavjud emasligi va korxona egasining yolg'izligi hamda aholining korxonaga nisbatan investitsiya jamg'armasini kiritmasligi korxonaning rivojlantirish va uni yangi texnika-texnologiyalar bilan jihozlashda moliyaviy yordamga muhtojligini keltirib chiqaradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning real sektoriga kiritilgan xorijiy investitsiyalardan oqilona va samarali foydalanish korxonalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan:

- 1) ilg'or texnologiyalar va boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi;
- 2) texnologiyalarni takomillashtirish va ishlab chiqarish darajasini oshirishga hissa qo'shadi;
- 3) ishlab chiqarishni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga investitsiyalar oxir-oqibat soliq tushumlarining ko'payishiga, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi;
- 4) mamlakatning dunyodagi iqtisodiy imidjini yaxshilaydi, mamlakatga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi;
- 5) sanoat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik orqali ichki iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyalashuviga yordam beradi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar juda muhim, lekin mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish undanda muhim bo'lib, bu vazifaga alohida e'tibor qaratib uni birinchi navbatda hal qilish lozim. Albatta, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, aniq afzalliklari bilan bir qatorda, ba'zi cheklovlariga ham ega jumladan, chet el kapitaliga haddan tashqari qaramlik mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi, chunki bu iqtisodiyotni geosiyosiy vaziyat ta'sirida o'ziga o'xshash holatga soladi, mahalliy biznesni sarmoya kiritishga undamaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsion muhit muhim ahamiyat kasb etib, u quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish,
- biznes – jarayonlarning sifati va uni soddalashtirilishi,
- yetarli infratuzilmani shakllantirish,
- eng yaxshi tajribalarni takrorlash hamda samaradorlikni baholash vositalarini ishlab chiqish.

Shu bilan birgalikda, ma'muriy to'siqlarni yanada kamaytirish, infratuzilma cheklovlarini olib tashlash, kichik biznesni tashkil etish tartibini soddalashtirish, bo'xona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, migratsiya siyosatini ishlab chiqish, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, soliq imtiyozlarining yangi vositalarini ishlab chiqish kabi sohalarda faol ishlar olib borish lozim. Taklif etilgan tavsiyalar tadbirkorlar sonini ko'paytirishga



olib keladi, bu esa iqtisodiyotimizni rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda, natijada mamlakatimiz istiqbolini belgilamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. – Toshkent. "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021-yil.
2. М.Мескон, М. Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М. Дело, 1992.:–С.489.
3. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions of Development of Entrepreneurship //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
4. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. – М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 290. – С. 86.
5. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. – М.: ИНФРА-М, 2016. – С. 91.
6. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39 b.
7. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistika to'plam. Toshkent, 2020 y.190b.
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.